

SURXONDARYO VILOYATIDA HUDUDLARNI IJTIMOIIY- IQTISODIY RIVOJLANTIRISH LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Jumayev Oybek Saemnazarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, Tadbirkorlik, Xarajatlar komponenti, Infratuzilma boshqaruvi, iqtisodiy parametrlar.

Kirish.

Mamlakatimizda Islom taraqqiyot banki ishtirokidagi "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" (2-FAZA) loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarga to'xtalib o'tamiz.

Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi tomonidan o'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bilan quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qilingan:

- yo'l-transport, energetika va kommunal infratuzilmani rivojlantirish;
- qishloq joylarda uy-joy qurilishini modernizatsiya qilish;
- ichimlik suvi ta'minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish;
- sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini rivojlantirish;
- tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalar amalga oshirildi.

Mazkur yo'nalishlardagi loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 1,9 mlrd. dollar bo'lgan uzoq muddatli kreditlar ajratilgan.

Xususan, Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari 1998-2018 yillar mobaynida sog'liqni saqlash, ta'lim, ichimlik suvi ta'minoti, irrigatsiya va melioratsiya, avtomobil va temir yo'llar qurilishi, qishloqlarda uy-joy qurilishi sohalaridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jami 529,5 mln. dollar mablag' ajratilgan.

Toshkent shahrida 2018 yilning sentyabr oyida Islom taraqqiyot banki guruhi kuni va Arab muvofiqlashtirish guruhi "Davra suhbatini" o'tkazildi.

Ushbu uchrashuvlar yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasida istiqbolli dasturlar va loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishib olingan.

Jumaladan, Islom taraqqiyot banki guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasida 1,3 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi

bilan Islom taraqqiyot banki guruhi o'rtasida 2018-2021 yillarga mo'ljallangan Sheriklik strategiyasi imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 18 sentyabrdagi PQ-5246-sonli qaroriga muvofiq "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" loyihasi doirasida qishloq aholi punktlarining arxitektura-me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikasiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish orqali aholining turmush darajasini oshirish mo'ljallangan.

"Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish" loyihasini moliyalashtirish uchun Islom taraqqiyot banki tomonidan 5 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga oluvchi 20 yil muddatga 200 mln AQSh dollari va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 5 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga oluvchi 20 yil muddatga 75 mln AQSh dollari miqdorida kredit mablag'lari ajratiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi Loyihani amalga oshirish davrida mas'ul ijro etuvchi organning hamkori sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Asosiy qism

Loyiha 2021-2025 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlarining 20 ta tumanidagi 170 ta MFY (40 ta markaziy, 130 ta yondosh mahalla)larda amalga oshiriladi.

1-jadval

«Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari

mln AQSh dollari

T/r	Xarajatlar komponenti	ITB	OPEK	BMTning Taraqqiyot Dasturi	O'zbekiston Respublikasi ulushi	Jami
1.	Asosiy infratuzilmani ta'minlash	175,25	69,0	–	49,75	294,00
2.	Infratuzilma boshqaruvi	13,92	2,30	3,00	7,74	26,96
3.	Loyihani amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash	2,61	0,80	–	0,44	3,85
4.	Loyihaning moliyaviy auditi	0,1	---	–	0,02	0,12
5.	Favqulodda vaziyatlar uchun zaxira	4,06	1,45	0,05	1,00	6,56
6.	Zaxira	4,06	1,45		1,00	6,51
	Jami	200,00	75,00	3,05	59,95	338,00

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK buyurtmachilik vazifalarini bajaradi.

Loyihani amalga oshirish guruhi bilan “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK o’rtasida hamkorlik kelishuvlari imzolangan.

Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg’armasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” loyihasining 2-bosqichi (2-FAZA)ni 2023-2028 yillar davomida amalga oshirish mo’ljallangan.

“Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” loyihasining 2-bosqichi doirasida Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatidagi 21 ta tumandagi 157 ta mahalla uchun jami 260 mln. dollar miqdoridagi kredit pul mablag’lari jalb etilishi rejalashtirilgan.

Xususan, dastur doirasida Surxondaryo viloyati Boysun, Sherobod, Muzrabot, Angor va Termiz tumanlaridagi 60 ta mahallalar tanlab olinib, jami 97,1 mln. AQSh dollar mablag’lar ajratilishi rejalashtirilgan.

Shundan,

- Boysun tumanidagi 9 ta mahalla uchun 11,78 mln. AQSh dollar;
- Sherobod tumanidagi 22 ta mahalla uchun 38,95 mln. AQSh dollar;
- Muzrabot tumanidagi 15 ta mahalla uchun 25,73 mln. AQSh dollar;
- Angor tumanidagi 9 ta mahalla uchun 13,53 mln. AQSh dollar;
- Termiz tumanidagi 5 ta mahalla uchun 7,1 mln. AQSh dollari yo’naltiriladi.

Mazkur mablag’lar hisobidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

I. Infratuzilmani yaxshilash bo’yicha:

- 785 km ichimlik suvi tarmog’i va 31 ta suv inshootlari hamda 38 km oqova suv tarmog’i va 3 ta inshoot quriladi.

Natijada, 19 738 ta aholi xonadoni markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanadi, shundan 13 ta mahalladagi 7 507 ta aholi xonadoni birinchi marta markazlashgan ichimlik suvi ta’minotiga ega bo’ladi.

- 557 km asosiy va ichki yo’llar ta’mirlanadi, 49 ta ko’prikni qurish-ta’mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Natijada, 46 769 ta xonadon foydalanadigan yo’l infratuzilmasini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

- 457 km elektr tarmog’i quriladi va 126 dona transformator yangidan o’rnatiladi.

Natijada, 33 458 ta aholi xonadoni va 652 ta tadbirkorlik subyekti kafolatlangan elektr energiyasi bilan ta’minlanadi.

II. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo’yicha:

- 41 ta maktabda o’quv va sport zal binolarini qurish hamda 19 ta maktabni ta’mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Natijada, jami 9,2 ming o’rinli o’quv binolari va 11 ta sport zal yangidan quriladi, 5,7 ming o’rinli o’quv binolari ta’mirlanadi hamda zaruriy ta’lim jixozlari bilan ta’minlanadi.

- 28 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yangidan qurish va 3 ta maktabgacha ta'lim tashkilotini ta'mirlash ishlari bajariladi.

Natijada, 2 820 o'rin qo'shimcha quvvat tashkil etiladi.

- 16 ta sog'liqni saqlash muassasalarini qurish va 9 ta muassasada ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Natijada, 26 ming ta aholi xonadoniga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar darajasi yaxshilanadi.

III. Hududlarning arxitektura va me'moriy qiyofasini hamda sug'orish tizimlarini yaxshilash bo'yicha:

- 166 km irrigasiya va drenaj tizimi yaxshilanadi. Natijada, 27,6 mingta aholi xonadonlaridagi 1 840 gektar tomorqa yer maydonlari va fermer xo'jaliklarining 2 560 gektar yer maydonlarining suv ta'minotini yaxshilanadi. Buning evaziga yer maydonalridan olinadigan hosildorlik oshadi hamda aholi bandligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

- ijtimoiy soha va boshqa turdagi jamoat joylariga olib boruvchi yo'llarda 112 km piyodalar yo'laklari quriladi va ta'mirlanadi hamda 159 km tungi ko'cha yoritish tizimlari o'rnatiladi. Xalqaro moliya institutlari ishtirokida «Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarning ichimlik suvi va kanalizasiya tizimlarini yaxshilash» loyihasini amalga oshirish

Surxondaryo viloyatining umumiy maydoni 20,1 ming km. kv.ni tashkil etadi. Ma'muriy markazi Termiz shahri hisoblanib, undan tashqari 14 ta tumandan iborat. Viloyat aholisi soni 2,8 mln. kishini tashkil etadi. Mahallalar soni 723 ta.

Surxondaryo viloyati janubda – Afg'oniston, shShimoliy-sharqda – Tojikiston, janubiy-g'arbda – Turkmaniston bilan chegaradosh hisoblanadi. 2022 yil yakunida viloyatda YaHM – 34,9 trln. so'mni, Jami investisiya hajmi- 11,5 trln. so'mni, xorijiy investisiya – 5 trln. so'mni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar – 4,4 trln. so'mni tashkil etdi.

Loyihani amalga oshirishning birinchi bosqichi

1. Loyihani amalga oshirish bo'yicha muzokaralar o'tkazish (virtual).
2. Loyiha uchun tanlangan konsultant kompaniya vakillari tomonidan ma'lumotlarni shakllantirish.
3. Tanlangan hududlarning reytingini shakllantirish. Bunda zarur hollarda konsultant vakillarining hududlarga bevosita tashrifini tashkillashtirish.
4. Reyting natijalarini o'rganish maqsadida moliyalashtiruvchi, tashabbuskor va konsultant kompaniya vakillarining loyiha uchun tanlangan hududlarga tashrifini (missiyasini) shakllantirish.
5. Tashrif yakuni bo'yicha loyihani tanlab olish va muzokaralar o'tkazish.

2-jadval.

Aholi punktlarining reyting natijalari

		Termiz shahri	Termiz tumani Ayritom MFY	Termiz tumani Orol MFY
--	--	---------------	------------------------------	---------------------------

	Mahalliy hokimlikning bahosi	100	75	75
	"O'zsuvtu'minot" AJ bahosi	100	75	75
	Boshqa sohalarga bog'liqligi	100	100	100
	Mahalliy jamg'armalarga bog'liqligi	80	100	
	Boshqa loyiha doirasida amalga oshirilmayotganlik holati	100	100	80
	Jami reyting bali	96	90	68

Bugungi kunda Respublikamiz hududlarida mahalliy mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy sanoat korxonalarini tashkil etish, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish muhim o'rin tutmoqda.

Tarixdan ma'lumki, hozirgi Denov tumani hududida joylashgan ko'hna Chag'oniyon qadimgi davrlardan buyon yirik iqtisodiy-madaniy markaz sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yerda turli xalqlar o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalar jadal rivojlangan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan.

O'tgan yillar davomida Surxondaryo viloyatining Denov tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aholi uchun dolzarb bo'lgan muammoli masalalar to'liq hal etilmayapti.

Viloyatning eng ko'p aholisi istiqomat qilayotgan Denov tumanining Bosh rejasiga o'z vaqtida urbanizatsiya nuqtai nazardan yondashilmaganligi sababli ayrim yirik sanoat korxonalari, dehqon va buyum bozorlari tuman markazi Denov shahrida joylashtirilgan. Natijada aholi eng gavjum bo'ladigan mazkur hududlarga kirish va chiqish uchun yo'llarning torligi, avtomobillar uchun to'xtash joylari va infratuzilma tarmoqlari yetarli emasligi jiddiy muammolar tug'dirmoqda. Ayniqsa shahardagi dehqon bozori atrofi butunlay izdan chiqqan va aholiga juda katta noqulayliklar keltirib chiqarmoqda.

Tumanda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qulay agrobiznes muhitini hamda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish talab etiladi.

Denov tumanining ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalangan holda, hududda uzoq yillar davomida shakllangan hunarmandchilik va tadbirkorlik, sanoat, turizm, xizmat ko'rsatish va agrar sohani rivojlantirish, tuman markazining me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, uning tarixiy qismini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida 2020-2022-yillarda Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturni amalga oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

tumanning Bosh rejasini tanqidiy o'rganib, yo'l-transport infratuzilmasi, shoh ko'chalar, ko'p qavatli uylar qurilishi, istirohat bog'lari, sayilgohlar, zamonaviy savdo markazlari, infratuzilma obyektlari va sanoat zonalarini joylashtirish masalalarini muhandislik tarmoqlari bilan birgalikda

ko‘rib chiqib, takliflarni tayyorlash hamda yaqin va o‘rta istiqboldagi shaharsozlik vazifalarini belgilab olish;

tuman markazining me‘moriy qiyofasini tubdan o‘zgartirish, tarixiy qismini rekonstruksiya qilish, ko‘p qavatli uy-joy fondini sifat jihatdan yaxshilash, kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish;

aholining ish bilan bandligini oshirish hamda ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida tadbirkorlarni jalb etgan holda, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog‘ini jadal rivojlantirish;

sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmlarini keskin oshirish, mahalliy xomashyodan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali tuman iqtisodiyotiga valyuta tushumini ko‘paytirish borasida samarali ishlarni tashkil etish;

muhandislik-kommunikatsiya, xususan, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish, avtomobil yo‘llari va ichki ko‘chalar holatini yaxshilash, tuman markazidagi massivlarda zamonaviy tungi yoritish uskunalari va chiroqlarini o‘rnatish;

ichki va tumanlararo yo‘nalishlarda harakatlanuvchi jamoat transportining yangi yo‘nalishlarini ochib, aholiga sifatli va qulay transport xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish;

oliy ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish sifati va ko‘lamini kengaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik, texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot hamda mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo‘lgan boshqa sohalar bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

ijtimoiy soha muassasalari holatini yaxshilash, binolarini ta‘mirlash, jihozlarini yangilash, hududlarini obodonlashtirish, mutaxassislar malakasini va xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish hamda bu sohada xususiy sektor ulushini ko‘paytirish;

zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish klinikalari va tashxis markazlarini barpo etish;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni jadal rivojlantirish;

soliqqa tortish bazasini kengaytirish orqali mahalliy budjetga daromadlar tushumini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-2022-yillarda Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlari va moliyalashtirish manbalari asosida “2020-2022-yillarda Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarining manzilli dasturi”ni ishlab chiqib, tasdiqlagan.

Xulosa va takliflar.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining quyidagi tamoyillari mavjud: mintaqalar iqtisodiyotining balanslashgan strukturasi shakllanishi uchun sharoitlar yaratish; mineral xom ashyo resurslariga boy mintaqalarda xom ashyoni kompleks qayta ishlashdan undan yuqori texnologiyalarni joriy etish asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo‘lgan sikllarni o‘z ichiga oluvchi investision loyihalarni amalga oshirish; mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida mintaqani kompleks rivojlantirish; respublikaning ko‘pgina mintaqalari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashganligi mavjud ishlab

chiqarish kuchlarini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ishlovchi yangi qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko'paytirishni ko'zlaydi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini iqtisodiy baholashni amalga oshirishda quyidagi kamchiliklarni mavjudligi aniqlangan. ijtimoiy iqtisodiy sohalarni rivojlantirish ko'rsatkichlarning muayyan muammoli "nuqtalarni" yo'qligi normal yoki beqaror ko'rsatkichlar qiymatlari intervallarining yo'qligi; hududlardagi ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalarda bo'lgan qisman o'zgarishlar ham, aniq bir tanlangan hududning rivojlanishidagi hissasi yuqorida, olingan ma'lumotlarni aniqligini kamaytirishga ta'sir ko'rsatishi; jahondagi baholash usullari hududlardagi sanoat va xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganlik xususiyatlarini hisobga olmaydi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-aprelda qabul qilingan. "2020-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida" PQ-4667-sonli Qarorida Denov tumanining ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalangan holda, hududda uzoq yillar davomida shakllangan hunarmandchilik va tadbirkorlik, sanoat, turizm, xizmat ko'rsatish va agrar sohani rivojlantirish, tuman markazining me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, uning tarixiy qismini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish masalalari ko'rsatib berilgan.

2023-yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 40 909,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o'sdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 395,7 ming so'mni va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibini tumanlar kesimida tahlil qilsak, Denov tumanida Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning 36,5 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 59,0 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga, 4,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Qurilish ishlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi: Bandixon tumanida 127,2 %, Termiz tumanida 112,0 %, Denov tumanida 105,4 %, Sherobod tumanida 105,3 %, Qumqo'rg'on tumanida 104,1 %, Sho'rchi tumanida 105,0 %, Oltinsoy tumanida 104,9 %, Boysun tumanida 104,5 %, Jarqo'rg'on tumanida 104,1 %, va Termiz shahrida 116,7 %.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Denov (23,3%), Termiz shahri (17,9 %), Sho'rchi (10,1 %), Sherobod (6,1 %), Jarqo'rg'on (5,3 %), Angor (4,3 %) va Uzun (4,3 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tumanlar bo'yicha eng ko'p Termiz shahri - 698 ta, Denov tumani - 425 ta, Sherobod tumani - 337 ta, Jarqo'rg'on tumani - 293 ta, Oltinsoy tumani - 249 ta, Qiziriq tumani - 242 ta, Sho'rchi tumani - 241 ta va Sariosiyo - 212 tani tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-dekabr holatiga tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - 18,3 %, Denov tumani - 11,2 %, Sherobod tumani - 8,9 %, Jarqo'rg'on tumani - 7,7 %, Oltinsoy tumani - 6,5 %, Qiziriq tumani - 6,4 %, Sho'rchi tumani - 6,3 % va Sariosiyo tumani - 5,6 % ni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyatida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

I. Infratuzilmani yaxshilash bo'yicha: - 785 km ichimlik suvi tarmog'i va 31 ta suv inshootlari hamda 38 km oqova suv tarmog'i va 3 ta inshoot quriladi. Natijada, 19 738 ta aholi xonadoni markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanadi, shundan 13 ta mahalladagi 7 507 ta aholi xonadoni birinchi marta markazlashgan ichimlik suvi ta'minotiga ega bo'ladi. - 557 km asosiy va ichki yo'llar ta'mirlanadi, 49 ta ko'prikn qurish-ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Natijada, 46 769 ta xonadon foydalanadigan yo'l infratuzilmasini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. - 457 km elektr tarmog'i quriladi va 126 dona transformator yangidan o'rnatiladi. Natijada, 33 458 ta aholi xonadoni va 652 ta tadbirkorlik subyekti kafolatlangan elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

II. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha: - 41 ta maktabda o'quv va sport zal binolarini qurish hamda 19 ta maktabni ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Natijada, jami 9,2 ming o'rinli o'quv binolari va 11 ta sport zal yangidan quriladi, 5,7 ming o'rinli o'quv binolari ta'mirlanadi hamda zaruriy ta'lim jixozlari bilan ta'minlanadi. - 28 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yangidan qurish va 3 ta maktabgacha ta'lim tashkilotini ta'mirlash ishlari bajariladi. Natijada, 2 820 o'rin qo'shimcha quvvat tashkil etiladi. - 16 ta sog'liqni saqlash muassasalarini qurish va 9 ta muassasada ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Natijada, 26 ming ta aholi xonadoniga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar darajasi yaxshilanadi.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilgan holda, Denov tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi:

– tumanning yo'l-transport infratuzilmasi, shoh ko'chalar, ko'p qavatli uylar qurilishi, istirohat bog'lari, sayilgozlar, zamonaviy savdo markazlari, infratuzilma obyektlari va sanoat zonalarini joylashtirish masalalarini muhandislik tarmoqlari bilan birgalikda ko'rib chiqib, takliflarni tayyorlash hamda yaqin va o'rta istiqboldagi shaharsozlik vazifalarini belgilab olish;

– tuman markazining me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, tarixiy qismini rekonstruksiya qilish, ko'p qavatli uy-joy fondini sifat jihatdan yaxshilash, kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish;

– aholining ish bilan bandligini oshirish hamda ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida tadbirkorlarni jalb etgan holda, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ini jadal rivojlantirish;

– sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmlarini keskin oshirish, mahalliy xomashyodan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali tuman iqtisodiyotiga valyuta tushumini ko'paytirish borasida samarali ishlarni tashkil etish;

– muhandislik-kommunikatsiya, xususan, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish, avtomobil yo'llari va ichki ko'chalar holatini yaxshilash, tuman markazidagi massivlarda zamonaviy tungi yoritish uskunalari va chiroqlarini o'rnatish;

– ichki va tumanlararo yo'nalishlarda harakatlanuvchi jamoat transportining yangi yo'nalishlarini ochib, aholiga sifatli va qulay transport xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish;

– oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifati va ko'lamini kengaytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik, texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot hamda mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan boshqa sohalar bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- ijtimoiy soha muassasalari holatini yaxshilash, binolarini ta'mirlash, jihozlarini yangilash, hududlarini obodonlashtirish, mutaxassislar malakasini va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish hamda bu sohada xususiy sektor ulushini ko'paytirish;
- zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish klinikalari va tashxis markazlarini barpo etish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi ««O'ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi» to'g'risidagi PF-158-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi O'RQ-327-son "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa xuquqiy-me'yoriy xujjatlar
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi "2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 222-son Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-aprelda "2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida" PQ-4667-son Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 sentyabrdagi "Islom Taraqqiyot Banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5246-son Qarori
10. «O'zsuvta'minot» AJ tomonidan xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga 2024 — 2026 yillarda aholini ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlash dasturi
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. — <https://lex.uz/doss/3107036>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. — www.uza.uz.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida. 2017 yil 5 may, PF-5037-son. - <https://lex.uz/doss/3193118>
14. Ветер А. Формировать механизм стратегического управления / А.Ветер, В. Семидской // Экономика сельского хозяйства. — 2009. — №9. — С. 16–23.
15. Эконометрика: Учебник. /Под ред. И.И.Елисейевой. — М.: Финансы и статистика, 2003. — 51-53 с.:
16. Boltabayeva M.P, Qosimova M.S, G'oyibnazarov B.K, Ergashxodjayeva Sh.J, Samadov A.N, Otajonov Sh.I. "Kichik biznes va tadbirkorlik" darsligi, 2011 yil.

17. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: IQTISOD-MOLIYA nashriyoti, 2010. 477-b.
18. Tursunov B. Vneshneekonomicheskaya deyatelnost i privilecheniye inostrannyx investisiy. - Kurs leksiy. T.:O'zbekiston, 1995.-s.45.
19. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinchi kitob: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2003, 79-b.
20. Folmut X.Y. Instrumenty kontrollinga: ot A do Ya. M.: Finansy i statistika,2001. 171 s.
21. Karimov N.G'. va Xojimatov R.X., : Investisiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. –T.: TDIU, 2011
22. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /— Toshkent: Baktriapress, 2015. — P.119-121
23. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 174